PAREMIOLOGIK BIRLIKLARDA XALQ DUNYOQARASHINING IFODALANISHI

Matnazarov Shaxzodbek Baxtiyarovich
Abu Rayhon Beruniy nomidagi
Urganch davlat universiteti o‘qituvchisi;
Ismailova Anaxon Kamoladdin qizi
Abu Rayhon Beruniy nomidagi
Urganch davlat universiteti
3-bosqich tayanch doktoranti

Annotatsiya. Maqolada Xorazm o‘g‘uz shevalaridagi paremiologik birliklarning aksiologik tuzilishi tahlil qilinadi. Muallif dunyoqarash va olamning lisoniy manzarasi tushunchalarini chegaralab, paremiyaning qadriyatlarni kodlashtirish mexanizmini ochib beradi. 968 birlikdan iborat korpusning tahlili yettita qadriyat maydonini ajratish imkonini berdi; ular ichida mehnat va oila maydonlari yetakchi o‘rinni egallaydi. Alohida e’tibor axloqiy me’yorning sintaktik ifodasiga qaratiladi: shart-natija konstruksiyasining ustunligi paremiologik didaktikaning o‘ziga xos usulini ko‘rsatadi.

Аннотация. В статье анализируется аксиологическая структура паремиологических единиц огузских говоров Хорезма. Разграничивая понятия мировоззрения и языковой картины мира, автор раскрывает механизм кодирования ценностей в паремии. Анализ корпуса из 968 единиц позволил выделить семь ценностных полей; ведущее место среди них занимают поля труда и семьи. Особое внимание уделяется синтаксическому выражению нравственной нормы: преобладание условно-следственной конструкции раскрывает своеобразие паремиологической дидактики.

.**Abstract.** The article analyses the axiological structure of paremiological units in the Oghuz dialects of Khorezm. Distinguishing between the concepts of worldview and linguistic picture of the world, the author reveals the mechanism by which values are encoded in proverbs.

Analysis of a corpus of 968 units has made it possible to identify seven value fields, among which those of labour and family occupy the leading position. Particular attention is paid to the syntactic expression of moral norms: the predominance of the conditional-consequential construction reveals the distinctive character of paremiological didactics.

Kalit so‘zlar: aksiologiya, qadriyat maydoni, antiqadriyat, olamning lisoniy manzarasi, deontik modallik, paremiologik didaktika, Xorazm o‘g‘uz shevalari.

Ключевые слова: аксиология, ценностное поле, антиценность, языковая картина мира, деонтическая модальность, паремиологическая дидактика, огузские говоры Хорезма

Key words: axiology, value field, anti-value, linguistic picture of the world, deontic modality, paremiological didactics, Oghuz dialects of Khorezm.

Kirish. Xalq dunyoqarashining til birliklarida aks etishi antroposentrik paradigma doirasidagi markaziy masalalardan biridir. Uni yoritishda ikki tushuncha chegaralanishi zarur. Dunyoqarash muayyan jamoaning voqelikni idrok etish va baholashga oid g‘oyalar tizimi bo‘lsa, olamning lisoniy manzarasi shu tizimning til vositalarida moddiylashgan qismidir[1]. Boshqacha aytganda, dunyoqarash — mazmun, olamning lisoniy manzarasi — shu mazmunning lisoniy shakli.

Paremiologik birlik lisoniy manzarani tadqiq etishda alohida o‘rin tutadi, chunki u jamoaviy tajribaning uzoq muddatli saqlanish shakli hisoblanadi. G.L. Permyakov ta’kidlaganidek, maqol ayrim voqea haqidagi xabar emas, butun bir vaziyat turining

[1]Маслова В.А. Лингвокультурология: Учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений. – М.: Академия, 2001. – 208 с.

belgisi bo‘lib xizmat qiladi[2]. Bundan tashqari, maqol o‘z tabiatiga ko‘ra baholovchi: u voqelikni tasvirlamaydi, unga munosabat bildiradi.

Mazkur maqolada Xorazm o‘g‘uz shevalaridan to‘plangan 968 birlikdan iborat korpus aksiologik mezon asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi — qadriyat maydonlari tizimini aniqlash va axloqiy me’yorning lisoniy ifodalanish usullarini ko‘rsatishdir.

Aksiologik yondashuvning nazariy asoslar. Ishning aksiologik yo‘nalishi qadriyat va antiqadriyat kategoriyalarining qarama-qarshiligiga tayanadi. L.K. Bayramova paremiyalarning aksiologik tavsifida har bir qadriyat maydoni o‘zining inkoriga ega bo‘lishini va ular birgalikda yaxlit baholash shkalasini hosil qilishini ko‘rsatgan[3]. V.I. Karasik lingvomadaniy konseptning tushunchaviy, obrazli va qadriyatga oid tomonlarini ajratar ekan, aynan oxirgisini konseptni madaniy hodisaga aylantiruvchi asosiy belgi deb hisoblaydi[4].

Paremiyaning madaniy axborot tashuvchisi sifatidagi maqomi V.N. Teliya asoslagan madaniy konnotatsiya nazariyasi orqali izohlanadi: til birligining denotativ mazmuniga jamoaning qadriyat tizimidan kelib chiquvchi qatlam birikadi[5]. O‘zbek tilshunosligida lingvomadaniy yo‘nalishning nazariy asoslanishiga N. Mahmudovning ishlari muhim hissa qo‘shgan[6].

[22]Пермяков Г.Л. Основы структурной паремиологии. – М.: Наука, 1988. – 236 с.
[3]Байрамова Л.К. Пословицы в Аксиологическом фразеологическом словаре русского языка: словаре ценностей и антиценностей // Вестник Новгородского государственного университета. – 2014. – № 77. – С. 10–12.
[4]Карасик В.И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. – Волгоград: Перемена, 2002.
[55]Телия В.Н. Русская фразеология: семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – М.: Школа «Языки русской культуры», 1996. – 288 с.
[6]Маҳмудов Н. Тилнинг мукаммал тадқиқи йўлларини излаб… // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2012. – № 5. – Б. 3–16.

Dialektal material bu masalada adabiy til korpusidan ko‘ra ishonchliroq tayanch beradi. Sheva paremiologik fondi nashrga tayyorlash jarayonida saralanmagani uchun unda kanonik qarashga to‘liq mos kelmaydigan birliklar ham saqlanadi[7]; aynan shu birliklar aksiologik tizimning haqiqiy tuzilishini ochib beradi.

Qadriyat maydonlari tizimi.Korpusning 838 birligi (86,6 foizi) aniq aksiologik yo‘naltirilgan bo‘lib, yettita maydonga taqsimlandi. **Mehnat va kasb-hunar** maydoni 256 birlik (26,4 foiz) bilan birinchi o‘rinda turadi. Maydonning yadrosini mehnat va natija munosabati tashkil etadi va u ko‘pincha irrigatsion obraz orqali modellashtiriladi: *Araq qazȉmasaŋ, átȉza suv bármas*[8]. Mehnatdan bo‘yin tovlash esa non konsepti orqali qoralanadi: *Bár-bár, išga bár, išlämägän nángä zár*[9].

Oila maydoni 195 birlik (20,1 foiz) bilan ikkinchi o‘rinni egallaydi. Uning aksiologik markazida ota-ona o‘rnining o‘rnini bosib bo‘lmasligi g‘oyasi turadi va u retorik savol qolipida ifodalanadi: *Ánadȉn mehribán qajda, átadȉn ɣamgusár qajda*[10]. Farzandning oiladagi o‘rni predmet-maishiy kod orqali beriladi: *Färzänd — ájla qajčȉsȉnȉŋ mȉxȉ*[11] — qaychining mixi ikki qismni bog‘lab turuvchi kichik, ammo hal qiluvchi detal.

Nutq va so‘z madaniyati maydoni 166 birlikni (17,1 foiz) qamraydi. Uning ichki tuzilishida ko‘p gapirish va kam gapirish oppozitsiyasi tayanch o‘rinni egallaydi va u deyarli har doim ikkinchi a’zo foydasiga hal etiladi: *Áz gäplä, sáz gäplä*[12].

[7]Абдуллаев Ф. Ўзбек тилининг Хоразм шевалари. – Тошкент: Фан, 1961.
[8]Xorazm folklori. XI tom / To‘plovchi S. Ro‘zimboyev. – Urganch, 2021. – B. 29.
[999]Xorazm folklori. XI tom. – B. 30.
[1010]Xorazm folklori. XI tom. – B. 32.
[1111]Xorazm folklori. XI tom. – B. 33.
[12121212]Xorazm folklori. XI tom. – B. 31.

So‘zning qaytarib bo‘lmasligi *Ajtqan sözni ičkäri jutmáq bolmas*[13] birligida ta’kidlanadi.

Qolgan maydonlar hajm jihatidan kichikroq: **mehmondo‘stlik** 71 birlik (7,3 foiz), **qo‘shnichilik** 50 birlik (5,2 foiz), **or-nomus** 41 birlik (4,2 foiz), **sabr va qanoat** 41 birlik (4,2 foiz). Or-nomus maydonining nisbatan kichikligi konseptning ahamiyatsizligini emas, uning boshqa maydonlar ichida tarqoq holda namoyon bo‘lishini bildiradi: obro‘ motivi mehnat, oila va qo‘shnichilik birliklarida ikkilamchi sema sifatida faol ishtirok etadi.

Axloqiy me’yorning lisoniy ifodasi. Axloqiy qadriyatning paremiyada aks etishi sof mazmuniy hodisa emas — u aniq lisoniy shakllarga ega. Paremiologik birlikning me’yoriy mohiyati, avvalo, deontik modallikni ifodalash qobiliyatida namoyon bo‘ladi. Deontik modallik voqelikni «bor» emas, «bo‘lishi kerak» o‘lchovida baholaydi.

Korpus materialida axloqiy me’yorning ifodalanishida beshta sintaktik-semantik qolip kuzatiladi. **Shart-natija konstruksiyasi** eng mahsuldor vosita bo‘lib, 153 birlikda (15,8 foiz) qayd etildi. **Qiyoslash** 51 birlikda (5,3 foiz) uchraydi: *Uzáqdayì qujruqdan jaqìndayì öpkä jaxšï*[14]. **Antiteza** 30 birlikda (3,1 foiz): *Ána bilän qálgan gűl jetim, áta bilän qálgan šum jetim*[15]. **To‘g‘ridan-to‘g‘ri hukm** shaklidagi umumiy tasdiq va **retorik savol** (12 birlik, 1,2 foiz) qolgan ikki qolipni tashkil etadi.

Shart-natija konstruksiyasining ustunligi paremiologik didaktikaning o‘ziga xos usulini ochib beradi: ko‘rsatma buyruq shaklida emas, oqibat shaklida taqdim etiladi va tanlov mas’uliyati tinglovchi zimmasiga yuklanadi. Buyruq-taqiq shakllarining ulushi ancha past — 66 birlik (6,8 foiz). Korpusning 567 birligi (58,6 foiz) ikki qismli

[131313]Xorazm folklori. XI tom. – B. 35.
[141414]Норбоева Ш., Саъдуллаева Н., Атабоева М. Кўрсатилган асар. – Б. 95.
[1515]Xorazm folklori. XI tom. – B. 32.

tuzilishga ega bo‘lishi ham shu xulosani mustahkamlaydi: baho yakka hukm emas, ikki holatning qiyosi orqali shakllantiriladi.

Antiqadriyatlar va fondning ichki dialogikligi. Korpusda salbiy baholovchi 93 birlik (9,6 foiz) ajratildi. Bu ko‘rsatkich ijobiy qutbnikidan sezilarli darajada past bo‘lib, paremiologik fondning asosiy yo‘nalishi taqiqlash emas, me’yorni tasdiqlash ekanini ko‘rsatadi. Yalqovlik antiqadriyatlar ichida eng ko‘p qayd etilgani bo‘lib, bu mehnat maydonining ustunligi bilan bevosita bog‘liq: qaysi qadriyat markaziy bo‘lsa, uning inkori ham shuncha batafsil ishlanadi.

Yolg‘on va xiyonat konseptlari, asosan, vaqt kategoriyasi vositasida baholanadi: *Jályáńčïnïŋ šamï qaráŋγï tušgungä qadar jánadï*[16]. Salbiy xulqning asosiy nuqsoni uning uzoqqa bormasligida ko‘riladi.

Alohida qayd etilishi lozim bo‘lgan hodisa — fondda qarama-qarshi baho beruvchi juftliklarning mavjudligi. Taqdir maydonida fatalistik va aktivistik modellar yonma-yon yashaydi. Bu ziddiyatni mantiqiy nomuvofiqlik sifatida baholash noto‘g‘ri: Permyakov ko‘rsatgan qoidaga ko‘ra[17], qarama-qarshi mazmundagi ikki birlik turli kommunikativ vaziyatlarda faollashadi. Fatalistik birliklar muvaffaqiyatsizlikni izohlash, aktivistik birliklar esa harakatga undash vaziyatida qo‘llanadi.

Xulosa. Korpusning 86,6 foizi aniq aksiologik yo‘naltirilgan bo‘lib, yettita qadriyat maydoniga taqsimlanadi. Ierarxiyada mehnat (26,4 foiz) va oila (20,1 foiz) yetakchilik qiladi; bu ikki maydon birgalikda axloqiy-didaktik fondning yarmidan ko‘pini tashkil etadi va Xorazm jamoasining dunyoqarash markazini belgilaydi.

[1616]Komil Avaz. Mo‘jaz maqollar va naqllar. – Urganch, 2005. – B. 37.
[1717]Пермяков Г.Л. Основы структурной паремиологии. – М.: Наука, 1988. – 236 с.

Axloqiy me’yorning ifodalanishida shart-natija konstruksiyasi eng mahsuldor vosita bo‘lib chiqdi (15,8 foiz), buyruq-taqiq shakllarining ulushi esa ancha past (6,8 foiz). Bu nisbat paremiologik didaktikaning usulini ochib beradi: me’yor buyruq sifatida emas, oqibat sifatida taqdim etiladi.

Antiqadriyatni qayd etuvchi birliklar ulushi 9,6 foizni tashkil etadi. Ijobiy va salbiy qutb o‘rtasidagi bu nomutanosiblik fondning asosiy vazifasi taqiqlash emas, me’yorni tasdiqlash ekanini dalillaydi.

Qadriyat maydonlarining tarkibi umumturkiy xarakterga ega bo‘lsa-da, ularning obrazli ta’minoti mintaqaviydir. Markaziy qadriyat — mehnat — irrigatsion amaliyot orqali modellashtiriladi, qo‘shnichilik esa qarindoshlikdan ustun qo‘yiladi. Aynan shu obrazli to‘ldiruv Xorazm o‘g‘uz shevalari aksiologik tizimini umumo‘zbek modelidan ajratib turadi.

GLOBAL SCHOLARS
SCIENTIFIC PUBLISHING

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Байрамова Л.К. Пословицы в Аксиологическом фразеологическом словаре русского языка: словаре ценностей и антиценностей // Вестник Новгородского государственного университета. – 2014. – № 77. – С. 10–12.

2. Карасик В.И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. – Волгоград: Перемена, 2002.

3. Маслова В.А. Лингвокультурология: Учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений. – М.: Академия, 2001. – 208 с.

4. Пермяков Г.Л. Основы структурной паремиологии. – М.: Наука, 1988. – 236 с.

5. Телия В.Н. Русская фразеология: семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – М.: Школа «Языки русской культуры», 1996. – 288 с.

6. Маҳмудов Н. Тилнинг мукаммал тадқиқи йўлларини излаб… // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2012. – № 5. – Б. 3–16.

7. Абдуллаев Ф. Ўзбек тилининг Хоразм шевалари. – Тошкент: Фан, 1961.

8. Норбоева Ш., Саъдуллаева Н., Атабоева М. Хоразм шеваларидаги мақол ва ибораларнинг қисқача изоҳли луғати. – Урганч, 2022. – Б. 95.

9. Komil Avaz. Mo‘jaz maqollar va naqllar. – Urganch, 2005. – B. 37.

10. Xorazm folklori. XI tom / To‘plovchi S. Ro‘zimboyev. – Urganch, 2021. – B. 29–36.